

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI PROPEDEVTIK
STOMATOLOGIYA KAFEDRASI**



**“STOMATOLOGIK KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI”
MODULI ISHCHI O‘QUV DASTURI**

3 - kurs

Bilim soxasi:	900000	- Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim soxasi	910000	- Sog’liqni saqlash
Ta’lim yo’nalishlari	6091110	- Stomatologiya

Andijon - 2025

Fan/modul kodi SKP15608		O'quv yili 2025-2026	Semestr 5-6	Kreditlar 8,0	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 2-4	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Stomatologik kasalliklar profilaktikasi	120	120	240	
2	<p>I. Fanining mazmuni <i>Fanni o'qitishdan maqsad-</i> Stomatologik kasalliklar profilaktikasi fanini o'qitishdan maqsad - asosiy stomatologik kasalliklarni erta aniqlash, tashxislash, ularni dispanser guruhlariga ajratish, bu xastaliklarni kompleks profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, rejalashtirish, karies profilaktikasida qo'llaniluvchi preparatlar, og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigiena vositalari to'g'risida yaxlit ma'lumot berish bilan birga, ulardan foydalanish va tanlash texnikasini to'la egallashdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: <i>5-semestr:</i></p> <p>Ma'ruza №1. Jahon sog'liqni saqlash tashqilotining asosiy stomatologik kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlari. Epidemiologik ko'rsatkichlarni aniqlash usullari. Karies va parodont kasalliklari profilaktikasi asoslari haqida batafsil ma'lumot. Karies va parodont kasalliklari epidemiologiyasi. Statistika ma'lumotlari.</p> <p>Ma'ruza №2. Tish pelliculasi tuzilishi, hosil bo'lish mexanizmi, ahamiyati. Oq karashlar va ovqat qoldiqlarining xususiyatlari. Tish pilikchasi, struktura tuzilishi, hosil bo'lish mexanizmi va ahamiyati. Milk usti tish toshlari, struktura tuzilishi, hosil bo'lish mexanizmi va atrof to'qimalarga ta'siri . Milk osti toshlari, struktura tuzilishi, hosil bo'lish jarayoni va ahamiyati.</p> <p>Ma'ruza №3. Og'iz bo'shlig'i gigenasining maxsus vositalari. Tish tozalagichlar, irrigatorlar, flosslar. Tish eliksirlari. xususiyatlari. Ularning karies profilaktikasidagi o'rni.</p> <p>Ma'ruza №4. Og'iz bo'shlig'ining malakali gigenasi. Tishlarni mexanik va fizik usullardan foydalanib tozalash. Elektr tish cho'tkalari.</p>				

Ma'ruza №5. Fones usulida tishlarni tozalash. Leonard va Charter, Bass, Stillmann usullari. Tishlarni standart usulda tozalash (G. N. Paxomov bo'yicha). Bolalarda og'iz bo'shlig'i malakali gigienasining asl mohiyati va qoidalari. Tishlarda tish usti karash va cho'kmalarni aniqlash. Bolalarga tishlarni to'g'ri yuvish qoidalarini o'rgatish. Tish yumshoq karashlarini maxsus aylanuvchi cho'tka, rezina kalpoqcha yordamida abraziv pastalar bilan tozalash. Nazoratli tish tozalashni bolalarga o'rgatish.

6-semestr

Ma'ruza №1. Og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigienasi vositalari haqida to'liq ma'lumot. Tish pastalari tasnifi, tarkibi, ularning tish emali va parodont to'qimasiga ta'sirlari. Bolalik davrida ishlatiladigan tish poroshoklari. Ularning tarkibi, xususiyatlari. Tish cho'kmalarning tasnifi.

Ma'ruza №2. Karies kasalliklarining ommaviy profilaktika usullari bilan tanishtiri Ommaviy va mahalliy profilaktika chora tadbirlari. Ichimlik suvini, osh tuzini va sut forlash usullari. Ftor saqllovchi tabletkalar va ulardan foydalanish. Ularning organizm ta'siri, mineral tuzlar almashinuvidagi ishtiroki

Ma'ruza №3. Ommaviy va mahalliy profilaktika chora tadbirlari. Kalsiy, fosfor saqllovchi tabletkalar va ulardan foydalanishning samaradorligi. Aholiga og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigienasi usullarini «emlash». Ftor va ftorli birikmalarni tishlar kariesi kasalligi profilaktikasidagi o'rni. Ftor moddasining tish qattiq to'qimalarida kechadigan mineralizatsiya jarayonida ishtiroki mexanizmlari. Ftorapatitlar hosil bo'lishi jarayoni.

Ma'ruza №4. Parodont kasalliklarining ommaviy profilaktika usullari bilan tanishtirish, mahalliy va umumiy profilaktik chora tadbir choralari mavjud bulgan mahalliy va umumiy bo'lgan omillarga bog'liqligi, bu omillarni o'z vaqtida va erta aniqlash va ularni kompleks chora tadbirlaridan foydalanib, ularni bartaraf qilish.

Ma'ruza №5. Sanitar maorifining stomatologik kasalliklar profilaktikasidagi roli to'g'risida batafsil ma'lumot. Sanitar maorifi shakllari. Sanitariya maorifini amalga oshirish yo'llari, usullari. Ommaviy axborot vositalaridan profilaktika maqsadida foydalanish. Avzalliklari, kamchiliklari. Bog'cha va maktablarda stomatologik kasalliklar profilaktikasi tadbirlarini o'tkazish. Davolash-profilaktika muassasalarida profilaktikani tashkil qilish

5-semest

Amaliy mashg'ulot №1. Bolalarda og'iz bo'shlig'ining profilaktik ko'rigini o'tkazish.

Amaliy mashg'ulot №2. Bolalarda sut tishlarning rivojlanishi, chiqishi, ildizlarining shakllanish va so'rilish muddatlari.

Amaliy mashg'ulot №3. Bolalarda doimiy tishlarning chiqishi, ildizlarining shakllanish muddatlari.

Amaliy mashg'ulot №4. Stomatologik statusni tekshirish usullari. Stomatologik ko'rsatkichlar.(KT, KJ, DM). JSST kriteriylari.

Amaliy mashg'ulot №5. Og'iz bo'shlig'i gigienasi indeksi ko'rsatkichlari. JSST kriteriylari.

Amaliy mashg'ulot №6. Parodont kasalliklari indeklari (ko'rsatkichlari). JSST kriteriylari (PMA, KPI).

Amaliy mashg'ulot №7. Og'iz bo'shlig'ida himoya- bar'er kompleksi tizimi. So'lak tarkibi va uning karies profilaktikasidagi ahamiyati.

Amaliy mashg'ulot №8. Kariesni keltirib chiqaruvchi omillar. Bolalarda tish yuzalarida hosil bo'ladigan yumshoq karashlar.

Amaliy mashg'ulot №9. Bolalarda tish yuzalarida hosil bo'ladigan tish toshlari.Ularning karies va parodont kasalliklarini vujudga kelishidagi ahamiyati.

Amaliy mashg'ulot №10. Karies kelib chiqishida mikroorganizmlarning roli. Og'iz bo'shlig'idagi kariesogen muhit. Emalning kariesrezistentligini oshirish usullari.

Amaliy mashg'ulot №11. Emalning o'choqli demineralizatsiyasini va tish karashlarini klinik aniqlash usullari

Amaliy mashg'ulot №12. Og'iz bo'shlig'ining malakali gigienasi.

Amaliy mashg'ulot №13. Og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigienasi vositalari. Asosiy vositalari (Tish cho'tkalari, poroshoklari)

Amaliy mashg'ulot №14. Og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigienasi qo'shimcha vositalari.(tish kovlagichlar, flosslar, chaynov rezinalari (saqichlar), irrigatorlar va h.k.).

Amaliy mashg'ulot №15. Tish tozalash usullari.(Fones, Leonard, Charter, Stillman, Baas, standart usulida (G. N. Paxomov)

Jami

6 – semestr

Amaliy mashg'ulot №1. Tish yuvish pastalari kimyoviy tarkibi va xususiyati. Davolovchi va profilaktik tish pastalari.

Amaliy mashg'ulot №2. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi usullari.(faol va nofaol usullari)

Amaliy mashg'ulot №3. Bolalarda karies profilaktikasida ratsional ovqatlanishini ta'limning ahamiyati. Stomatologik kasalliklar profilaktikasida ftor saqlovchi birikmalarni ta'limning ahamiyati.

Amaliy mashg'ulot №4. Karies profilaktikasida ftor saqlovchi preparatlarning qo'llanilish usullari. Ftor saqlovchi tabletkalar. Ichimlik suvini ftorlash, ftorlangan sut. Osh tuzini ftorlash.

Amaliy mashg'ulot №5. Karies profilaktikasida ftor saqlovchi preparatlarning qo'llanilish usullari. Ftorlak, ftor saqlovchi eritma va gellar.

Amaliy mashg'ulot №6. Karies profilaktikasida ftor tutmaydigan preparatlar. Ularni ta'limning ahamiyati, qo'llash usullari ("Remodent", Kalsiy preparatlari).

Amaliy mashg'ulot №7. Karies profilaktikasida ftor tutmaydigan preparatlar. Ularni ta'limning ahamiyati, qo'llash usullari (Fitin, vitaminlar).

Amaliy mashg'ulot №8. Mineralizatsiya, demineralizatsiya va remineralizatsiya jarayonlari.

Amaliy mashg'ulot №9. Boshlang'ich(oq dog') va yuza kariesda endogen va ekzogen davolash usullari.

Amaliy mashg'ulot №10. Bolalarda karies profilaktikasida fissuralarni germetizatsiya qilish va ularning ahamiyati.

Amaliy mashg'ulot №11. Bolalar yoshida og'riq profilaktikasi maqsadida ruhiy holatni barqarorlashtirish.

Amaliy mashg'ulot №12. Tish qattiq to'qimalarining nokaries kasalliklari profilaktikasi usullari.

Amaliy mashg'ulot №13. Og'iz bo'shligi shilliq qavati kasalliklari profilaktikasi.

Amaliy mashg'ulot №14. Tish jag'-sistemi anomaliyasi va deformatsiyasi profilaktikasi

Amaliy mashg'ulot №15. Bolalar va o'smirlarda stomatologik kasalliklar profilaktikasi o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari. Homilador ayollarda stomatologik kasalliklar profilaktikasi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va

tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulot davomida aniq bir mavzularni nazariy jihatdan chuqur o'rganish, uslubiy jihatdan dolzarb bo'lgan mavzularni chuqur taxlil qilish, alohida muommolar bo'yicha ilmiy jihatdan ishlab chiqish maqsadida savol-javob, suhbat, doklad va referatlarni muhokama qilish, yozma nazorat ishlarini olish, vaziyatli masalalarni muhokama qilish va test savollariga javob berish orqali egallaniladi. Shu bilan birga mashg'ulot davomida interfaol usullardan va kompyuter, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda nazariy bilimlarni mustahkamlash lozim.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

Stomatologik kasalliklar profilaktikasi fani bo'yicha klinik amaliyotni o'tish davrida talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

Amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Og'iz bo'shlig'i profilaktik ko'rigini o'tkazish;
2. Og'iz bo'shligi gigienik indeksini (GI) aniqlash;
3. Karies jadallik ko'rsatkichini aniqlash (KPU \pm kp);.
4. Karies tarqalish ko'rsatkichini aniqlash;
5. Tishlarning davolanishga muhtojlik ko'rsatkichini aniqlash;
6. Parodont (RMA) ko'rsatkichini aniqlash;
7. Tishlarni standart usulda tozalash qoidasini o'rgatish;
8. Tishlarni ftorlaklar bilan koplash;
9. Tishlar yuzasini applikasiya usulida remineralizatsiya qilish;
10. Tish fissuralarini muhrlash;
11. Tishlar yuzasini kumushlash;
12. Tish karash va cho'kmalarini aniqlash;
13. Tish karash va cho'kmalarini tozalash;
14. Tish emali sathidagi o'choqli demineralizatsiyani vital bo'yash usulida aniqlash.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Karies va parodont kasalliklari profilaktikasi asoslari.
2. Og'iz bo'shlig'i profilaktik ko'rigini o'tkazish usullari.
3. Sut va doimiy tishlarining anatomik, gistologik va qattiq to'qimalarining kimyoviy tuzilishi.
4. Ommaviy stomatologik kasalliklar ko'rsatkichlari. Statistika ma'lumotlari.
5. Bolalarda tish yuzalarida hosil bo'ladigan yumshoq karashlar.
6. Milk usti va milk osti tish toshlarini hosil bo'lish mexanizmi.
7. Tish karashlarining karies va parodont kasallaklarining vujudga

kelishidagi ahamiyati.

8. Kariesni keltirib chiqaruvchi omillar.
9. Og'iz bo'shlig'ida kariesogen muhit mexanizmi.
10. Og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigienasi vositasi: Tish cho'tkalari, turlari.
11. Zamonaviy tish pastalari kimyoviy tarkibi va xususiyati.
12. Og'iz bo'shlig'i gigienasining maxsus vositalari.
13. Tish tozalash usullarining ahamiyati.
14. Og'iz bo'shlig'i malakali gigienasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asboblardan va ularga qo'yilgan talablar.
15. Karies va parodont kasalliklarining ommaviy profilaktika usullari.
16. Stomatologik kasalliklar profilaktikasida ftorsaqlovchi birikmalarning ahamiyati.
17. Ftor va ftorli birikmalarini tish kariesi profilaktikasidagi o'rni.
18. Karies profilaktikasida ftor tutmaydigan preparatlarning ahamiyati.
19. Bolalar yoshida ishlatiladigan davolovchi tagliklar va germetiklar.
20. Emal mineralizatsiyasi va demineralizatsiyasi.
21. Emalning remineralizatsiya usullari.
22. Karies xavfini aniqlash usullari.
23. Parodont kasalliklari profilaktikasining ahamiyati.
24. Uglevodlarning tish kariesini kelib chiqishidagi o'rni.
25. Mineral moddalarning tish taraqqiyotidagi o'rni.
26. So'lak tarkibi, uning ahamiyati.
27. Tashkiliy - jamoat joylarida (bog'cha va maktablarda) sanitar- maorifini amalga oshirish yo'llari.
28. Sanitar-maorifning stomatologik kasalliklar profilaktikasidagi o'rni.
29. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi tizimini tashkil qilish.
30. Tish qattiq to'qimalarining nokaries kasalliklari profilaktikasi.
31. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari profilaktikasining ahamiyati.
32. Tish- jag' sistemasi anomaliyasi va deformatsiyasi profilaktikasining ahamiyati.
33. Davolash-profilaktika muassasalarida profilaktikani tashkil qilish.
34. Homilador ayollar uchun muvofiqlashgan ovqatlanish jarayonini tashkil qilish. Muvofiqlashgan ovqatlanish ratsionini tuzish.

Modul bo'yicha talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagilardan foydalanadi:

- Modul bo'yicha talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagilardan foydalanadi:
- Referatlar tayyorlaydi va himoya qiladi
- Prezentatsiyalar tayyorlaydi.
- Organayzerlar tuzadi
- Dokladdir tayyorlaydi.
- Muammoga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechadi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha Umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

	<p>Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish; - Bog'cha-maktablarda auditoriyadan tashqarida amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish; - Bemorlar kuratsiyasida davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan nazorat qilishda ishtirok etish; - Aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish; - Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; - Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash; - Fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish; - Vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish.
3	<p>V. Ta'lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari. Talaba semestr yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Og'iz bo'shlig'i profilaktik ko'rigini o'tkazish; • Og'iz bo'shligi gigienik indeksini (GI) aniqlash; • Karies jadallik ko'rsatkichini aniqlash (KPU +kp);. • Karies tarqalish ko'rsatkichini aniqlash; • Tishlarning davolanishga muhtojlik ko'rsatkichini aniqlash; • Parodont (RMA) ko'rsatkichini aniqlash; • Tishlarni standart usulda tozalash qoidasini o'rgatish; • Tishlarni ftorlaklar bilan koplash; • Tishlar yuzasini applikasiya usulida remineralizatsiya qilish; • Tish fissuralarini muhrlash; • Tishlar yuzasini kumushlash; • Tish karash va cho'kmalarini aniqlash; • Tish karash va cho'kmalarini tozalash; • Tish emali sathidagi o'choqli demineralizatsiyani vital bo'yash usulida aniqlash. • qo'llay olish <i>malakalariga(shujumladanamaliyko'nikmalariga)egabo'lishikerak.</i>
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tezkor savol-javoblar; • guruxlarda ishlash; • jamoa bo'lib ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • dalolatnomalar yozish;
5	<p style="text-align: center;">JORIY NAZORAT (JN)</p> <p>JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda</p>

ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi.

Joriy nazorat uchun 6,0 kredit ajratiladi:

JN kafedrada og'zaki so'rov va masofaviy ta'lim platformasida test shakllarida o'tkaziladi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. O'qituvchi tomonidan talabaning JN bali shu kunni o'zida platformaga qo'yiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Joriy nazoratda talaba ajratilgan kreditni to'liq to'plashi shart, shundagina u YN kiritiladi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

YAKUNIY NAZORAT (YN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YNga kiritiladi. YNda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng og'zaki OSKE shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YNda saralash balini (55 ball) yig'a olmagan talaba YNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga

fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Ba ho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;	5	a'lo

				<p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va rasional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p>	4	yaxshi	

			<p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni YNgi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>			
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija,	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur			

			<p>sezilarli hatoliklar bilan</p> <p>dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni YNgi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay</p>			
--	--	--	--	--	--	--

			<p>olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoniqarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p>	3	Qoniqarli

			nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda</p>		

				yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
	31-54	FX	"qoniqar - siz" - minimal darajada gi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlash-tirishi zarur	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.	2	Qoni qarsiz
	0-30	F	"mutloq qoniqars iz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
6	<p style="text-align: center;">Fakultet ortopedik stomatologiyasi 1 fani moduli bo'yicha ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda xorijiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan ortodontiya yo'nalishi bo'yicha quyidagi dasturlar o'rganib</p>					

chiqildi va ishchi dasturni ishlab chiqishda halqaro tajriba asosida o'zgartirishlar kiritildi:

1. <https://dentistry.tamu.edu/departments/dental-hygiene/admissions/syllabi/dhy-syllabi-1st-year/pdfs/3110-introduction-to-dentistry.pdf>

2. Texas A&M University (AQSH), Stomatologiya fakulteti, «Stomatologiyaga kirish» moduli sillabusi:

<https://dentistry.tamu.edu/departments/dental-hygiene/admissions/syllabi/dhy-syllabi-1st-year/pdfs/3110-introduction-to-dentistry.pdf>

Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №143/
(https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/texas/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)

3. <https://facultyofdentistry.ie/images/examinations/General-Dental-Syllabus-and-guidance-notes.pdf>

4. https://www.kau.edu.sa/Files/165005/Files/57262_Removable%20Prosthodontics%20523.pdf

TOP-300 talik ro'yxatga kirgan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini o'rganib chiqib, mazkur ishchi dasturga quyidagi mavzular qo'shimcha sifatida kiritildi:

- 1) Jahon sog'liqni saqlash tashqilotining asosiy stomatologik kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlari. Epidemiologik ko'rsatkichlarni aniqlash usullari. Karies va parodont kasalliklari profilaktikasi asoslari haqida batafsil ma'lumot.
- 2) Tish yumshoq karashlarini maxsus aylanuvchi cho'tka, rezina kalpoqcha yordamida abraziv pastalar bilan tozalash. Nazoratli tish tozalashni bolalarga o'rgatish.
- 3) Mineralizatsiya, demineralizatsiya va remineralizatsiya jarayonlari.
- 4) Og'iz bo'shligi shilliq qavati kasalliklari profilaktikasi.

Asosiy adabiyotlar

1. Xalilov I.X., Daminova Sh.B. va b.q. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent. TTA bosmaxonasi. 2018 u.
2. Xalilov I.X., Xudanov B.O. va b.q. Bolalar terapevtik stomatologiyasi. Darslik. –Toshkent. Delta Plus. 2017 u.
3. Xalilov I.X., Raxmonov X.Sh. va b.q. Bolalar terapevtik stomatologiyasi. Darslik. –Toshkent. Top Image Media. 2015 u.

	<p>4. Muxamedov I.M., Rizaev J.A., Daminova Sh.B., Muxamedova M.S. Stomatologiyada klinik mikrobiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2015 y.</p> <p>5. Xalilov I.X., Yo'ldoshxonova A.S., va boshq. Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar profilaktikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. SHARQ. 2011 y.</p> <p>6. Xalilov I.X., Yuldoshxonova O.S., Raxmonov X.Sh. Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar profilaktikasi. Darslik. –Toshkent. Yangiyo'l poligraf servis. 2006 y</p> <p>7. Oxunjonova H.X., Rasulova M.M. "pul'pitning turlari va uning zamonaviy davolash usullari" o'quv qo'llanma. Andijon – 2024y.</p> <p>8. Sherboyeva M.X., Hakimova Z.Q. "Tish qattiq to'qimalari kasalliklari" o'quv qo'llanma. Andijon – 2023y</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Persin L.S., Elizarova V.M., D'yakova S.V. Stomatologiya detskogo vozrasta. Uchebnik. – Moskva. Meditsina. 2006 g.</p> <p>2. Orexovoy L.Yu. Основы профессиональной гигиены полости рта: Метод.реком. – Санкт-Петербург. Poli Media Press. 2004 g.</p> <p>3. Borovskiy Ye.V. Terapevticheskaya stomatologiya. Uchebnik. –Moskva. Meditsinskoe informatsionnoe agentstvo. 2004 g.</p> <p>4. Bajanov N.N. Stomatologiya. Uchebnik. –Moskva. GEOTAR-Media. 2002 g.</p> <p>5. Terexova T.N., Poprujenko T.V. Uchebnik. Terapevticheskaya stomatologiya detskogo vozrasta. – Moskva. Meditsina. 2002 g.</p> <p>6. Kuzmina E.M. Profilaktika stomatologicheskix zabolevaniy. Uchebnik. –Moskva. Tonga-Print. 2001 g.</p> <p>7. Kuryakina N.V. Terapevticheskaya stomatologiya detskogo vozrasta. Uchebnik. – Novgorod. NGMA. 2001 g.</p> <p>8. Leus P.A. Zabolevaniya zubov i полости рта. Uchebnik. –Moskva. Vyshyeyshaya shkola. 2001 g.</p> <p>9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017 y.</p> <p>10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017 y.</p> <p>11. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2016 y.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlar:</p> <p>1. www.ziyonet.uz</p> <p>2. www.e-kutubxona.uz</p> <p>3. http://www.zub.ru</p> <p>4. www.e-stomatology</p> <p>5. www. Edentwold</p>
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas'ullar: Z.Q.Xakimova - Propedevtik stomatologiya kafedrasini mudiri
9	Taqrizchi: D.Sh.Tulanov - ADTI, T.F.N. davolash fakulteti dekani. Bolalar stomatologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi, Raimjonov R.R.- Ortopedik va ortodontik stomatologiya kafedrasini mudiri